

## **PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODLARI**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

**Ro'ziboyeva Sevinch Akmal qizi**

**Annotatsiya:**Maqolada pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari uning mazmuni va tarkibiy qismlari yoritilgan.Shuningdek,zamonaviy ta'lim sharoitida o'quvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda qo'llaniladigan samarali metodlar,innovatsion yondashuvlar va interfaol ta'lim

texnologiyalarining ahamiyati tahlil qilingan.Tadqiqot natijalari pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda kasbiy kompetentlikni muntazam rivojlantirish zarurligini ko'satadi.

**Kalit so'zlar:**kasbiy kompetentlik,interfaol ta'lim,pedagog,metodlar,innovatsion yondashuv.

**Kirish:** Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'ymoqda.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellectual rivojlangan avlodni tarbiyalash,oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish"vazifasi belgilandi.

### **PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI.**

O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi,uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan bo'lib,ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.Pedagog kasbiy kompetentligining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: Metodik kompetentlik; Kommunikativ kompetentlik;

Axborot-kommunikatsion kompetentlik; Ijtimoiy-psixologik kompetentlik; Refleksiv kompetentlik. Pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodlari. Interfaol metodlar pedagoglarning faol ishtirokni ta'minlab, ularning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jumladan: aqliy hujum, klaset, insert, debat, keysstadi, baliq skleti. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar pedagog kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi: Raqamli ta'lim platformalari, Masofaviy ta'lim, Multimedia vositalari, STEAM texnologiyasi. Pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilishi, xatolar ustida ishlashi va o'zo'zini rivojlantirishga intilishi kasbiy kompetentlikni oshiradi. Malaka oshirish va uzluksiz ta'lim. Seminar-treninglar, malaka oshirish kurslari va ilmiy-amaliy konferensiyalar pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini yangilashga xizmat qiladi. Kasbiy faoliyat jarayonida zamonaviy o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish orqali shaxs hayotiga hamda uning ijtimoiy rivojlanishiga ma'lum bir darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishning bosh g'oyasi-shaxsning turli xil sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellectual va axloqiy-ma'naviy rivojlanishidir. Demak, kasbiy kompetentlik pedagogdan mutaxassislik bilimlarini boyitib boorish, yangi axborotlarni kuzatib ularni qo'llay bilish, izlanuvchanlik va yangi bilimlarni qayta ishlab o'z faoliyatiga qo'llay olish mahoratini ham talab etadi. O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanish muhimdir. Aniq metodlar: Raqamli platformalar (Moodle, Google Classroom)-darsni rejalashtirish va monitoring. Masofaviy ta'lim-pedagogning mustaqil o'rganish ko'nikmasini rivojlantiradi. Multimedia darslar-vizual va audiovizual vositalardan samarali foydalanish. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat metodi. Mazmuni: Pedagogni ilmiy izlanishiga jalb etish. Ijodiy va tahliliy kompetentlikni rivojlantirish.

Qo'llash shakllari: Ilmiy maqola yozish; Tajriba-sinov ishlari; Innovatsion loyihalar

Aniq metodlar: Darsdan keying yozma tahlil; Videoanaliz; Pedagogik portfoliolar. Professional o'sish va xatolar ustida ishlash ko'nikmasi rivojlanadi.

Trening va seminar metodlari. Mazmuni: Pedagogning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan faol o'qitish shakli. Pedagogik texnika va muloqot madaniyatini takomillashtirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimining rivoji pedagog shaxsining kasbiy tayyorgarligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish pedagoglarning kasbiy kompetentligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodlarini ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Tadqiqot natijalari pedagog kasbiy kompetentligini rivojlantirish uzluksiz va tizimli jarayon ekanligini ko'rsatadi. Bugungi globallashuv va raqamli ta'lim sharoitida pedagog shaxsiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ta'lim sifati bevosita o'quvchilarning kasbiy kompetentligiga bog'liq bo'lib, u pedagogik jarayonni samarali tashkil etish, zamonaviy metod va texnologiyalarni qo'llash hamda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

**Xulosa:** Pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uzluksiz va tizimli jarayon bo'lib, u zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda olib borilishi zarur. Interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va reflektiv yondashuvlar pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi hamda ta'lim sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodlarini ilmiy asosda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika.
2. Zunnunov A. Pedagogik kompetentlik asoslari.
3. Muslimov N.A. Zamonaviy pedagogika texnologiyalari.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.